

“O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Baxriddinova. Sh. I.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 2-kurs magistranti, 44-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, so‘z, lug‘at, nutq, og‘zaki nutq, yozma nutq, lug‘at boyligi.

Annotatsiya

O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirishda lug‘at ustida ishlash asosiy o‘rin egallaydi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarning fikrlash doirasining kengayishiga hissa qo‘shadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

So‘z tilning ma‘no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma‘no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba‘zi so‘zlarning eskirib, iste‘moldan chiqib ketishi, ma‘no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi.

“Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya‘ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma‘nolarini o‘zlashtirish.
2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish.
3. Lug‘atni faollashtirish, ya‘ni o‘quvchilar ma‘nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish.
4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nafaol lug‘atiga o‘tkazish”. [1]

O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrofni o‘rab olgan muhitni, tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish.
2. Badiiy adabiyot namunalaridan o‘qish.
3. Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganlaridan keyin ular lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta‘sir qiladi.
4. Kino va televizor ko‘rsatuvlarining matnlari, o‘qituvchi va boshqa maktab va maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o‘quvchilar lug‘atini boyitish manbalari hisoblanadi.
5. O‘quvchilar nutqini boyitishda turli xil lug‘atlar ham asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

So‘zlarning ma‘nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi.

Atamalarining ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi anglab olishga yordam beradi. Masalan, narsa so'zining ma'nosini tushunish orqali atrofimizdagi barcha predmetlar narsa ekanligini anglab oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez tushunib olishda ularga yordam beradi. So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni aniqlab oladi.

O'qish savodxonligi kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmaganda holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq vositalari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar, rivoyatlar, ertaklar o'qilganda, undagi ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

“Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.
2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.
3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning uslubiy ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.
4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, mehnatkash tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha bilan, ya'ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, ko'nchi-teriga ishlov beruvchi kishi, qiroatxona-kitob o'qish xonasi.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshqalar kabi

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi kishilarning fazilatlarini tahlil qilish orqali tushuntirish.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.[2; 309]

Abu Ali ibn Sino

(Rivoyat)

“Rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dong‘i ketgan, mashhur hakimlarning hakimi dono ibn Sino yashar ekan. Kunlardan bir kun amir kasalga chalinibdi. Amirni avvaliga saroy tabiblari davolabdilar. Natija bo‘lmagach, ibn Sinoga murojaat qilibdilar. Ibn Sino dori-darmonidan amir dardiga shifo topibdi.

Amir ibn Sinodan:

- Nima bersam xursand bo‘lasan? – deb so‘rabdi.
- Menga hech qanday tilla ham, suruv-suruv ot, qo‘ylar ham kerak emas. Qishlog‘imga bir qiroatxona qurdirib, qirq tuyga kitob bersangiz bo‘lgani, - debdi ibn Sino.

Amir bunday javobdan mamnun bo‘lib, ibn Sinoning qishlog‘iga qiroatxona qurdiribdi. Butun dunyoga jar soldirib kitob yig‘diribdi. O‘zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblarni olib, qirq tuyaga yuklab, ibn Sino qishlog‘iga jo‘natibdi. Amirni o‘limdan olib qolgan ibn Sinoning dong‘i har tomonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlashibdi. Ular kutubxonaga kirib, kitoblar orasidan ibn Sinoni zo‘rg‘a topishibdi va undan:

- Saroydan kelganingizdan buyon shu yerda kitob titkilab yotibsizmi? – deb so‘rashibdi.
- Ha, eng yaqin do‘stlarim – kitoblar bilan suhbat qurib, kun-u oy, hafta-yu yillar o‘tganini ham sezmayapman, - debdi ibn Sino.
- Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? – deb so‘rabdi tabiblardan biri.
- Yo‘q, tabiblikni astoydil qilmoqdaman. Avvalo, ulug‘ zotlarning pand-nasihatlarini, ko‘rsatmalarini bilib olib, so‘ng davolashni ma‘qul topdim.

Men shu kungacha o‘zimni tabib hisoblab, katta xatoga yo‘l qo‘ygan ekanman. Endi mana shu kitoblardan o‘rganganlarimni amaliyot bilan mustahkamlashim kerak. Shundagina o‘zimni tabib deb atashga haqli deb bilaman, - debdi.

Tabiblardan biri:

- Bordi-yu, kutubxonaga o‘t ketsa nima bo‘ladi? - deb so‘rabdi.

Ibn Sino:

- Avvalombor, kutubxonaga o‘t ketishiga yo‘l qo‘ymayman. Bordi-yu, falokat ro‘y berib o‘t ketsa, unda cho‘chiydigan joyim yo‘q. Bu kitoblarning hammasini yod oldim. Qaytadan yozishga umrim yetsa, kifoya, - debdi.

Tabiblar ibn Sinoning zehni hamda xotirasiga qoyil qolibdilar”. [3; 16-18]

Berilgan matnda lug‘at ustida ishlashda o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlarni tanish bo‘lgan so‘z orqali va so‘z birikmalari orqali tushuniriladi. Masalan, muzofot-viloyat, dong‘i-ovozasi, dovrug‘i, suruv-suruv ot-otlar to‘dasi, qiroatxona-kitob o‘qish xonasi, kifoya-yetarli kabi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda leksikologik, morfologik, sintaktik jihatlar hisobga olinadi. Lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishda eng asosiysi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/311/html/45258/Ma'ruza%20matni.htm>
2. “Ona tili o‘qitish metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulom ova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. 4-sinf 2-qism “O‘qish savodxonligi”: Baynazarova O, Toirova M, “Novda nashriyoti”, 2023